SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 2
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Qurbanova Xusnora Xudoyberdi qizi

Qashqadaryo PMM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni germenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash zaruriyati, o‘ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari hamda pedagogik muammolari haqida ma’lumot berilgan. Tadqiqot doirasida germenevtik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodologiyasi va pedagogik muammolari nazariy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

Kasbiy faoliyat, o‘qituvchi, DTS, muammoli ta’lim, tarbiya, germenevtik yondashuv, qiziqish, kasb, yo‘naltirish, komponent, diagnostik, izlanishli, tashkiliy, mazmunli texnologik, faoliyatga yo‘naltirilgan, motivatsiya.

KIRISH

“Jamiyatning tez sur’atlarda rivojlanishi globallashuv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va bu orqali kelgusi ta’lim sifatini yuksaltirish masalalarini hal etishni talab qiladi”108

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni germenevtik yondashuvlar asosida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish aynan ta’lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish va uning mazmunini doimiy ravishda yangilab borish, oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, pedagogik jarayonni yangi pedagogik shakllar va usullar asosida tashkil etish, innovatsion g‘oyalar, kasbiy ta’lim jarayonini takomillashtirish muhim va dolzarbdir. Ko‘rinib turibdiki, talabalarda anglash, tushunish va sharhlash qobiliyatlarini rivojlantirishning zarurligi o‘zaro faol munosabatlar ta’sirida rivojlanadigan ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim muhiti, o‘qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta’minlashni talab qiladi.

“Ta’lim tizimini modernizatsiyalash va uni shaxs imkoniyatlariga to‘liq moslashtirishga ko‘maklashuvchi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri ta’lim oluvchilarda tashabbuskorlik, mustaqillik, kreativlik sifatlarini qaror toptirish va rivojlantirishdan iborat etib belgilangan”109. Shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo‘lsak, mutaxassislar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri – ularda kasbiy faoliyatga nisbatan kreativ yondoshuvini rivojlantirishdan iborat.

Buning uchun eng avvalo bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilimlarni oshirish, kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishni germenevtik yondashuv asosida tashkillashtirishning metodologik, didaktik hamda metodik funksiyalarini nazariy va amaliy jihatdan tadbiq etish, oliy ta’lim muassasasi bitiruvchilar bandligini kasbiy bilimlarni shakllantirish orqali tashkillashtirish maqsadida o‘quv-uslubiy majmualar yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kasbiy-yo‘naltirilganlik texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish, ishlab chiqilgan metodlardan foydalanib sinov-tajribalar o‘tkazish va germenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni tashkillashtirish metodikasini ishlab chiqish va ta’lim jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiq.

Oliy ta’lim talabalarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish, ta’lim va kasbiy faoliyati uzluksizligini ta’minlash, ta’lim-tarbiya borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish muammosi nazariy-metodologik yondashuvlarni talab etadi”110. Ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish, mehnat bozori talablariga javob beradigan, inson, davlat va jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini hisobga olgan holda talabalarning talab darajasida mehnat faoliyatini yuritishi uchun yetarli bo‘lgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish zarur.

Tadqiqot doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi muammolarning sabablari aniqlandi:

1) oliy ta’lim tizimida DTS va pedagog kadrlar tayyorlashga qo‘yilgan malaka talablarida talabalarning matnni anglash, tushunish va talqin qilish bo‘yicha muayyan yaxlit talablar belgilab berilmagan;

2) kasbiy faoliyatga tayyorlashda germenevtik yondashuvning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanilmagan;

3) bo‘lajak o‘qituvchilarni germenevtik yondashuv asosida kasbiy moslashtirish nazariyasi tahlili natijasida uning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilmagan;

4) bo‘lajak o‘qituvchilarni germenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunini pedagog mutaxassis shaxsiga qo‘yiladigan zamonaviy kasbiy talab va takliflar darajasida takomillashtirish zarurati mavjud;

5) bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o‘quv jarayonini tashkil etishga germenevtik yondashuvni qaror toptirish zarurati va pedagogik shart-sharoitlarning mavjud emasligi, mutaxassislarning germenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga samarali ta’sir ko‘rsatishi omillari aniqlanmagan.

Yangicha mazmundagi o‘quv-metodik majmualarni yaratish, o‘qitishning innovatsion shakl va metodlarini o‘quv jarayoniga tadbiq etish va tizimli monitoring jarayonini yo‘lga qo‘yish talabalarda anglash, bilish, tushunish va mantiqiy mushohada qilish ko‘nikmalarini oshirishda ularning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda

kasbiy tayyorgarlikning shakllanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’limni tashkil etish, ta’lim oluvchi mutaxassislarning bilim va malakasini rivojlantirish, intellektual fikrli, mantiqiy tahlil va mushohadaga ega bo‘lgan yosh avlodni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolarini ko‘rib chiqish germenevtik yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy sifatlar pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining muhim omillaridan biri bo‘lib, ular “maqsadga intiluvchanlik; qat’iyatlilik; diqqatni taqsimlay olish; tirishqoqlik; kuzatuvchanlik; pedagogik takt va pedagogik xayolning rivojlanganligi; ijtimoiy faollik; tashabbuskorlik; shaxsiy namuna ko‘rsatish; umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo‘shish kabi jihatlar bilan tavsiflanadi”112. Kasbiy sifatlarning shakllanishi ta’lim oluvchilar bilan emotsional birlikni ta’minlash, darsning kommunikativ tizimi va ijobiy iqlimni yaratish, shuningdek, pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Tadqiqotchilar L.M. Mitina va O.V. Kuzmenkova o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchining kasbiy rivojlanish kontseptsiyasini shakllantirib, uning ijtimoiy ahamiyatli jihatlarini tushuntiradilar va shu o‘rinda o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga ta’sir etuvchi qator ahamiyatli omillarni ajratib ko‘rsatadilar.

Xususan, tadqiqotchilar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy moslashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri – “kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlari va qobiliyatlari, kasbiy bilim va ko‘nikmalarining o‘sishi, shakllanishi, integratsiyasi hamda pedagogik mehnatda o‘z amaliy tadbiqini topishi kerak ekanligini e’tirof etsalar-da, biroq asosiy omil sifatida – kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishlashni ta’minlovchi shaxsning ichki motivatsiyasi va pedagogik kasbga yo‘nalganligini olib qaraydilar”. Bunday holat kasbiy moslashtirish jarayoni bevosita shaxsning imkoniyatlari va ehtiyojlari asosida tashkillashtirilishi lozimligini ilmiy asoslaydilar.

Biroq mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash nuqtai nazaridan kasbiy-pedagogik faoliyatni yo‘lga qo‘yishning tashkiliy-pedagogik asoslari germenevtik yondashuv asosida hali maxsus o‘rganilmagan. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va pedagogik mahoratini takomillashtirishga germenevtik yondashuvni taqozo etmoqda. Shu bois ushbu tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarni germenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asoslari va pedagogik shart-sharoitlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shunday ekan, biz germenevtik yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va pedagogik mahoratini oshirish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularning kasbiy mahoratini oshirishga nisbatan ijtimoiy va pedagogik talablarni kuchaytirish;

– mutaxassis kadrlarni tayyorlashda kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirish;

– kasbiy pedagogik faoliyatga muntazam ravishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;

– innovatsion ta’lim konsepsiyalari, pedagogika, psixologiya hamda kasb-hunar ta’limi mohiyatini yorituvchi axborot xizmatlaridan foydalanish;

– mantiqiy fikrlash, idrok etish, tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini yo‘lga qo‘yish shartlari va omillarini aniqlash;

– zamonaviy o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, emotsional va umumiy pedagogik madaniyati, ijtimoiy-pedagogik faoliyati, pedagogik mahoratiga qo‘yiluvchi talablarni belgilash;

– pedagogik texnologiyalar borasida nazariy va amaliy bilimlarni egallash;

– pedagogik maqsadlarga erishish natijalarini ta’minlovchi pedagogik texnologiyalarning maqbul metod va usullarini tanlay olish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim jarayonini maqsadli va samarali tashkil etishini ta’minlovchi germenevtik yondashuvning mazmun-mohiyatini anglashga erishish;

– yuksak darajadagi yetuk kasbiy mahorat cho‘qqilarini zabt etish hamda pedagogik faoliyatda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– pedagogik tafakkur, mantiqiy mulohaza, anglash, tushunish, tushuntirish qobiliyatlarini rivojlantirish;

– faol ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

– shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini anglash, tushunish va tushuntirish ko‘nikmalarini takomillashtirish;

– ta’lim jarayonida insonparvar va demokratik tamoyillarga rioya qilinishini ta’minlash.

Demak, ushbu vazifalarni amalga oshirish, dastavval, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy-pedagogik faoliyat mazmunini anglashi, ilmiy-pedagogik ta’limotlar va akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni amalga oshirishga bog‘liq deb hisoblaymiz. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda, kasbga yo‘nalganlik holatlari, ish beruvchi tashkilotlar tomonidan qo‘yilgan malaka talablari, kasb darajalari (razryadlari) bo‘yicha ko‘rsatkichlarni oshirish, “oliy ta’lim talabalarining samarali kasbiy shakllanishi, kasbiy faoliyat va ishlab chiqarishga nisbatan ijodiy munosabati hamda ongli yondashuvini qaror toptirish, ularning har tomonlama barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishuvlarini ta’minlashga hissa qo‘shish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi nazariy tahlil, mavzuga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tipologik o‘rganish hamda germenevtik yondashuvning didaktik imkoniyatlarini kontent-tahlil qilishga asoslandi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini, kasbiy (ma’naviy, shaxsiy va jismoniy) imkoniyat va kasbiy sifatlarini faoliyat samaradorligiga to‘laqonli yo‘naltirish kasbiy moslashtirishning zaruriy shart-sharoitlaridan sanaladi. Mazkur jarayonda shaxs individualligi muhim mezonlardan biri sifatida o‘rganildi.

NATIJALAR

Tadqiqotimizda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga doir tadqiqotlar tahlilining natijalariga ko‘ra quyidagi yondashuvlar ahamiyatli deb topildi: shaxsga yo‘naltirilgan, texnologik, qadriyatga asoslangan, kompetensiyaviy hamda germenevtik yondashuvlar.

Oliy ta’lim tizimidagi xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda bo‘lajak o‘qituvchilarni germenevtik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish sifatini

oshirish, ularning kasbiy-pedagogik salohiyatini ko‘tarish va ta’limda texnologiyalarni takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etildi va quyidagi muammolar aniqlandi:

birinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muhiti, uni tashkil etish usullari, vositalari va jarayonlarini to‘liq tushunib yetmasliklari;

ikkinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarda germenevtik yondashuvning dispersiv xususiyati – pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi, pedagogik va kasbiy faoliyatga doir bilimlar integratsiyasi, germenevtik yondashuv asosida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar hamda pedagogik amaliyot jarayonlarini tashkil etish borasidagi tasavvurlarning yetarli darajada emasligi;

uchinchidan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kelgusi pedagogik faoliyatlarida germenevtik yondashuv, kasbiy faoliyat va uni tashkil etishning dispersiv xususiyatini ochib beruvchi metodik ishlanmalarning yetishmasligi.

MUHOKAMA

Yuqorida tadqiq qilingan masalalardan shuni xulosa qilish mumkinki, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, mantiqiy fikrlash va anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda kasbiy tafakkurini shakllantirish masalasiga alohida e’tiborni qaratish lozim. Shuningdek, kasbiy tushunish, anglash va tahlil qila olish jarayoni murakkab bo‘lib, u bir qator psixologik, pedagogik va germenevtik shart-sharoitlar va omillarni talab etadi. Bu muammo hozircha tadqiqotlarda to‘la-to‘kis o‘z ifodasini topganicha yo‘q, bu esa mavzuning yanada chuqur nazariy va amaliy tadqiq etilishini taqozo etadi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, germenevtik yondashuvning bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi salohiyati hozirgi amaliyotda to‘liq ishga solinmagan: pedagogik va axborot texnologiyalari integratsiyasi, kasbiy bilimlarning yaxlitligi hamda amaliyot jarayonlarini tashkil etishga oid tasavvurlar yetarli emas. Bu, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-uslubiy majmualarni yangilash va germenevtik yondashuvga asoslangan metodik ishlanmalarni ishlab chiqishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning ob’ektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikatsiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu boisdan ham, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda germenevtik yondashuv metodologiyasining nazariy jihatlaridan foydalanish asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 146 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, “Ta’lim to‘g‘risida”. – Toshkent, 2020 yil 23 sentabr // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
3. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2000. – 52 b.
4. Abdullayeva O.S. Kasb ta’limi yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlari samaradorligini oshirish texnologiyalari: p.f.b.f.d (PhD) disser. avtor. – Namangan, 2018. – 5 b.
5. Allayarova S. Germenevtika. O‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet, 2017. – 78 b.
6. Брудный А. А. Психологическая герменевтика. – М.: Лабиринт, 2005.
7. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: p.f.n. diss. avtoref. – Toshkent, 2011. – 8-9 b.
8. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: dis. ped. fan. dokt. – T., 2007. – 175 b.
9. Xaydarova O.Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. p.f.n. diss. – Qarshi, 2004. – B. 76-97.
10. Ishmuhamedov R. va boshq. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008. – B. 16-18.